NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-9]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

IJTIMOIY-MA'NAVIY MUHITNI KO'P DARAJALI BAHOLASH: MAHALLA, TUMAN, VILOYAT PROFILI VA MUAMMOLI NUQTALAR XARITASINI TUZISH METODIKASI

Boltayev Jasur Akbarovich, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi. E-mail: jasurboltayev84@gmail.com.

Annotatsiya: *Ijtimoiy-ma'naviy muhit (IMM) holatini mahalla, tuman, viloyat va respublika darajalarida o'zaro muvofiq baholash metodikasi asoslanadi. Sakkiz bosqichli algoritm kichik hududlar bahosi, qat'iy chegaralar bo'yicha normallashtirish, geometrik agregatsiyalash, muammoli nuqtalarni «ikki chegara» mezoni bilan ajratish, manzilli chora paketi va takroriy o'lchovni birlashtiradi. Shartli misol arifmetik o'rta xulq qatlami inqirozini yashirishini, geometrik agregatsiyalash va qatlam mezoni esa uni aniqlashini ko'rsatadi. «Indikatorlar agregatsiyalanadi, indekslar qayta hisoblanadi» qoidasi asoslanib, hududiy va sohaviy xususiyatlar ko'rsatiladi. Natijalarni reyting emas, hududiy profil va muammoli nuqtalar xaritasi shaklida taqdim etish taklif qilinadi. Ko'p darajali va «shart-sharoit, faoliyat, holat» qoidalari Institutning 2024–2025 yillardagi so'rovnomasining agregat ma'lumotlarida sinalgan.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy-ma'naviy muhit; ko'p darajali baholash; hududiy profil; muammoli nuqtalar xaritasi; ikki chegara mezoni; kichik hududlar bahosi; manzilli sog'lomlashtirish; mahalla.*

МНОГОУРОВНЕВАЯ ОЦЕНКА СОЦИАЛЬНО-ДУХОВНОЙ СРЕДЫ: МЕТОДИКА ПОСТРОЕНИЯ ПРОФИЛЯ МАХАЛЛИ, РАЙОНА, ОБЛАСТИ И КАРТЫ ПРОБЛЕМНЫХ ТОЧЕК

Аннотация: *Обосновывается методика согласованной оценки социально-духовной среды (СДС) на уровнях махалли, района, области и республики. Восьмиэтапный алгоритм объединяет оценивание для малых территорий, нормализацию относительно фиксированных границ, геометрическую агрегацию, выделение проблемных точек по критерию «двойного порога», адресные пакеты мер и повторное измерение. Условный пример показывает, что среднее арифметическое маскирует кризис поведенческого слоя, а геометрическая агрегация с правилом слоя его выявляет. Обосновано правило «агрегируются индикаторы, индексы пересчитываются», описаны территориальные и отраслевые особенности. Результаты предлагается представлять не как рейтинг, а как территориальные профили и карту проблемных точек. Правила многоуровневой оценки и логической модели «условия, деятельность, состояние» проверены на агрегированных данных опроса Института 2024–2025 годов.*

Ключевые слова: *социально-духовная среда; многоуровневая оценка; территориальный профиль; карта проблемных точек; критерий двойного порога; оценивание для малых территорий; адресное оздоровление; махалля.*

MULTILEVEL ASSESSMENT OF THE SOCIO-SPIRITUAL ENVIRONMENT: A METHODOLOGY FOR BUILDING MAHALLA, DISTRICT AND REGIONAL PROFILES AND A PROBLEM-POINT MAP

Abstract: *The article develops and justifies a methodology for assessing the socio-spiritual environment (SSE) consistently at four levels: mahalla, district, region and country. The eight-step algorithm combines small area estimation, normalisation against fixed goalposts, geometric aggregation, flagging of problem points by a dual cut-off, targeted packages of measures and repeated measurement. A hypothetical example shows that an arithmetic mean masks a crisis in the conduct layer, while geometric aggregation combined with the layer rule reveals it. The rule «indicators are aggregated, indices are recomputed» is justified, and territorial and sectoral specifics are described. The article proposes presenting results as territorial profiles and a problem-point map rather than as a ranking. The multilevel and conditions–activities–state rules were tested on aggregate data from the Institute's 2024–2025 survey.*

Keywords: *socio-spiritual environment; multilevel assessment; territorial profile; problem-point map; dual cut-off; small area estimation; targeted improvement; mahalla.*

KIRISh

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-son qarorida (2-band «b») ijtimoiy-ma'naviy muhit (IMM) holatini aniqlash va uni manzilli sog'lomlashtirish metodikasi loyihasini tayyorlash belgilangan edi [1]. 2021 yilgi PQ-5040-son qaror bilan bu band kuchini yo'qotdi, biroq vazifa doimiy monitoring tizimiga ko'chdi va Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti tashkil etildi [2]. Manzilli sog'lomlashtirish baholashni hududiy birlik bilan bog'lashni taqozo etadi, shu bois ko'p darajali baholash metodikaning negizidir.

Bu g‘oyaning ilk shakli amaliyotda mavjud: M.M. Kaxarovaning ma’lumoticha, 2019 yilgi metodikada natijalarni «mahalla, tuman, viloyat, respublika» tamoyili bo‘yicha IMM xaritasida ifodalash ko‘zda tutilgan, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi (RMMM) esa «yashil», «sariq», «qizil» xarita tuzgan [3, 54–58, 201–205-b.]. Institut 2022 yilda ikki tumandagi «qizil va sariq» mahallalarni o‘rgangan (N = 3 870) [3, 137–139-b.], 2024–2025 yillardagi so‘rovnoma natijalarini esa hududlar kesimida qiyoslagan, lekin bitta ko‘rsatkichga keltirmagan. Demak, rangli toifalash tajribasi bor, ammo takrorlanadigan hisoblash qoidalari yo‘q.

Mahalla aholi muammolarini yechishda dastlabki bo‘g‘in etib belgilangan [4], 2026 yil «Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish» yili deb e’lon qilingan [5], PF-116-son Farmonda esa «mahalla yettiligi»dagi xotin-qizlar faoli va rais vazifalariga oilalardagi IMM va aholi ma’naviyatiga doir ishlar kiritilgan [6]. Mahalla mas’ullariga muhitning aynan qaysi o‘lchoviga e’tibor qaratishni ko‘rsatadigan vosita kerak. 2026 yilgi PQ-49-son qarorda ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar va o‘rganishlar asosida 915 mahalla va 37 tuman «og‘ir toifa»ga kiritildi [7]. Bu tasnif shart-sharoitga tayanadi, holatga (ong, qalb, xulq belgilariga) asoslangan oshkora tasnif esa hali yo‘q; natijada iqtisodiy og‘ir mahallada muhit ham muammoli deb faraz qilinishi yoki sharoiti yaxshi, lekin muhiti yomonlashayotgan mahalla e’tibordan chetda qolishi mumkin.

Maqolaning maqsadi IMM holatini to‘rt darajada (mahalla, tuman, viloyat, respublika) o‘zaro muvofiq baholash, hududiy profillar va muammoli nuqtalar xaritasini tuzish metodikasini ishlab chiqish hamda hududiy va sohaviy xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Vazifalar: ko‘p darajali o‘lchashning metodologik asoslarini tahlil etish; sakkiz bosqichli algoritmni tuzish va shartli misolda ko‘rsatish; darajalararo agregatsiyalash qoidasini asoslash; «muammo profili va manzilli chora paketi» bog‘lanishini aniqlash. «Shart-sharoit, faoliyat, holat» (ShFH) modeliga ko‘ra indeks faqat holatni (H) o‘lchaydi, shart-sharoit (Sh) va faoliyat (F) alohida kuzatiladi. Metodika muallifning sakkiz o‘lchovni uch qatlamga birlashtiruvchi IMM integral indeksiga (IMMI) asoslanadi. Ong qatlami: axborot madaniyati (AM) va mafkuraviy immunitet (MI); qalb qatlami: qadriyatlar (QD), o‘zaro ishonch (O‘I) va totuvlik (TT); xulq qatlami: fuqarolik faolligi (FF), oila mustahkamligi (OM) va huquqiy tartib (HT); har o‘lchovda to‘rttadan, jami 32 indikator (ularni asoslash maqola doirasiga kirmaydi).

MAVZUGA OID ADABIYoTLAR TAHLILI

Birinchi masala individual javoblardan hudud xususiyatini o‘lchash bilan bog‘liq. S. Raudenbush va R. Sempsonning «ekometrika»siga ko‘ra, mahalla bahosi ishonchliligi mahallalararo tafovutning umumiy variatsiyadagi ulushi va respondentlar soniga bog‘liq [8]; R. Sempson va hamkorlari jamoaviy samaradorlikni mahalla xususiyati sifatida o‘lchagan [9]. Demak, mahalla bahosi «o‘rtacha fikr» emas, jamoaviy holat bahosi bo‘lib, uning ishonchliligi har safar tekshiriladi. Ikkinchi masala kichik birliklar bahosining barqarorligi bilan bog‘liq. S. Raudenbush va A. Brikning iyerarxik modellarida ishonchliligi past birlik o‘rtachasi umumiy o‘rtacha tomon ko‘proq «tortiladi» (empirik Bayes bahosi) [10]; kichik hududlar bahosida, jumladan Fey–Xerriot modelida, so‘rov bahosi model bahosi bilan aniqligiga qarab vaznlab birlashtiriladi [11; 12]. D. Kleyton va J. Kaldor kichik aholidagi xom nisbatlar kasallik xaritasini chalg‘itishini ko‘rsatgan [13]; kam aholili mahallada bir-ikkita ajrim nisbatni keskin o‘zgartiradi.

Uchinchi masala yordamga muhtoj birlikni ajratish mezoniga oid. S. Alkir va J. Fosterning «ikki chegara» usulida o‘lchovlar bo‘yicha tanqislik chegaralari va tanqisliklar soniga ikkinchi chegara qo‘yilib, kambag‘allar ulushi (H), ulardagi o‘rtacha tanqislik ulushi (A) va M0 = H · A topiladi [14], ko‘rsatkichlarni hududlar bo‘yicha dekompozitsiyalash mumkin [15]; Butanning Yalpi milliy baxt indeksi usulni milliy darajada qo‘llagan [16]. Demak, yordam manzilini o‘rtacha ball emas, tanqisliklar tuzilmasi belgilaydi. To‘rtinchi masala natijani taqdim etish shakliga oid. Bertelsmann jamg‘armasining «Ijtimoiy jipslik radari» 34 mamlakatni besh guruhga ajratib, umumiy indeksni 9 o‘lchovning arifmetik o‘rtachasi sifatida hisoblagan [17], Qirg‘izistondagi varianti esa mahalliy darajada Uord usulida besh profilni ajratgan [18]; hududiy profil g‘oyasiga N.I. Lapin va L.A. Belyayeva tahriridagi ijtimoiy-madaniy portretlar ham yaqin [19].

M.M. Kaxarova IMMni makro va mikro darajalarda ko‘rib chiqadi [3, 21-b.], biroq uning 10 indikatori savol, shkala, vazn, chegara va formulasiz berilgan [3, 221–227-b.]. «Radar»dagi arifmetik agregatsiyalashda bir o‘lchovdagi chuqur tanqislik boshqalari hisobiga qoplanishi mumkin, «ikki chegara» usulining ma’naviy holatga tatbiqi ko‘rib chiqilgan manbalarda topilmadi. Maqolaning hissasi shundaki, unda ekometrik ishonchlilik, kichik hududlar bahosi, qat’iy chegaralar, geometrik agregatsiyalash va ikki chegara mezoni bitta algoritmda birlashtirilib, profil manzilli chora bilan bog‘lanadi.

TADQIQOT MYeTODOLOGIYaSI

Tadqiqot metodologik loyihalash (modellashtirish) tusiga ega: algoritm kompozit indikatorlar bo‘yicha xalqaro qo‘llanmaga [20] moslashtirilib, ko‘p darajali o‘lchash va muammoli nuqtalar bosqichlari bilan to‘ldirilgan. Tahlil birliklari sifatida mahalla, tuman (shahar), viloyat va respublika olingan. Algoritm sakkiz bosqichdan iborat va shartli misolda namoyish etiladi; formulalar to‘liq berilgani uchun hisobni takrorlash mumkin.

1. A1. Ma’lumot yig‘ish. Manbalar: vakillik so‘rovi (22 indikator), ma’muriy statistika (6) va ekspert baholashi (4; kamida 3 ekspert, rubrikali 0–10 shkala). Tumanlarda n ≈ 400–600 tanlanma, mahallalarda har yili beshdan birida n ≈ 30

aylanma modul va kichik hududlar bahosi qo‘llanadi; «mahalla yettiligi» o‘z mahallasi uchun yagona manba bo‘la olmaydi.

2. A2. Indikatorlarni har bir darajada baholash. Javoblar 0–100 ga keltiriladi (1–5 ball: (x − 1)/4 × 100; 0–10 ball: x × 10). So‘rov o‘rtachasi yu = Σ di · xi / Σ di (di orqali dizayn vazni belgilangan), ma’muriy nisbat uch yillik: ru = (Y(t) + Y(t−1) + Y(t−2)) / (N(t) + N(t−1) + N(t−2)) (Y orqali hodisalar soni, N orqali aholi soni belgilangan). Kichik birliklar barqarorlashtiriladi: $\lambda u = \tau^2 / (\tau^2 + vu)$, su = λu · yu + (1 − λu) · md; bu yerda yu bevosita baho, md tuman o‘rtachasi, τ^2 birliklararo haqiqiy dispersiya, vu esa tasodifiy dispersiya (so‘rovda σ^2/nu, nisbatda taxminan md/Nu). λu ekologik ishonchlilik va empirik Bayes «tortish» vaznini birlashtiradi [8; 10; 13]; md o‘rnida regressiya bahosi Xu·β olinsa, Fey–Xerriot modeli hosil bo‘ladi [11; 12]. Yordamchi o‘zgaruvchilar Xu faqat Sh blokidan olinadi, aks holda F ko‘rsatkichlari tadbiri ko‘p mahalla bahosini sun’iy ko‘taradi. Yuqori darajalarda indikatorlar qayta hisoblanadi (nisbatlar ΣY / ΣN), past daraja indekslari o‘rtachalanmaydi.

3. A3. Normallashtirish. Indikatorlar qat’iy chegaralar bilan 0–100 shkalaga o‘tkaziladi: ijobiy (+) indikatorda I = (x − xmin)/(xmax − xmin) × 100, salbiy (−) indikatorda I = (xmax − x)/(xmax − xmin) × 100; natija shu oraliqqa kesiladi [20]. xmin va xmax baza yilida (milliy taqsimotning 5- va 95-persentillari yoki nazariy chegaralar) belgilanib, daraja va yillar bo‘yicha o‘zgarmaydi, aks holda viloyatlar va yillar qiyoslanmaydi.

4. A4. O‘lchov, qatlam va indeks. O‘lchov balli Dj = Σi wij · Iij (Σi wij = 1; asosiy variantda wij = 1/4), qatlam ballari geometrik o‘rtacha: Long = (DAM · DMI)1/2, Lqalb = (DQD · DO‘I · DTT)1/3, Lxulq = (DFF · DOM · DHT)1/3 (Dj ≥ 1), IMMI = (Long · Lqalb · Lxulq)1/3. Har bir ong o‘lchovining amaldagi vazni 1/6, qalb va xulq o‘lchovlarining har biriniki 1/9. Geometrik agregatsiyalash kompensatsiyani cheklaydi: bir qatlam tanqisligi boshqasining hisobiga to‘la qoplanmaydi.

5. A5. Daraja va rang. Qatlam ballari va IMMI besh darajaga bo‘linadi: tanqidiy: 0–34,9; past (xavf): 35–49,9; o‘rta (e’tibor talab): 50–64,9; yaxshi: 65–79,9; yuqori (barqaror): 80–100. Ranglar: qizil < 50, sariq 50–64,9, yashil ≥ 65 (RMMM amaliyotiga mos [3, 205-b.]); chegaralar pilotda ekspertlar bilan kalibrlanadi.

6. A6. Muammoli nuqtalarni aniqlash (ikki chegara). Duj < z bo‘lsa (bazaviy z = 50), birlik (u) j o‘lchov bo‘yicha tanqislikda: δuj = 1, aks holda δuj = 0; tanqisliklar soni cu = Σj δuj. cu ≥ k (bazaviy k = 3) yoki min(Long, Lqalb, Lxulq) < 40 bo‘lsa («qatlam inqirozi»), birlik muammoli nuqta hisoblanadi [14; 16]. Tuman va viloyat uchun muammoli nuqtalarda yashovchi aholining jami aholidagi ulushi (H) va j o‘lchov bo‘yicha tanqislikdagi birliklarda yashovchi aholi ulushi (Hj) hisoblanadi [15]; z va k sezgirlik tahlilida tekshiriladi.

7. A7. Profil tipologiyasi va manzilli chora paketi. Profillar (8 o‘lchov, 3 qatlam, tanqisliklar) standartlashtirilgan o‘lchov ballarida Uord klaster tahlili bilan tiplarga ajratilib [18], har tip va tanqislik majmuiga standart chora paketi beriladi (3-jadval). Muammoli nuqtalar xaritasi besh qatlamli: daraja rangi, muammoli nuqta belgisi, tanqislik kodi, baho ishonchliligi (λu) va shart-sharoit («og‘ir toifa»).

8. A8. Takroriy o‘lchov va samara. ΔIMMIu = IMMIu(t+1) − IMMIu(t) va chora qaratilgan o‘lchovlar bo‘yicha ΔDuj hisoblanadi; paket olgan birliklardagi o‘zgarish o‘xshash, lekin paket olmagan birliklardagisi bilan qiyoslanadi, samara: E = ΔIMMI(maqsadli) − ΔIMMI(qiyosiy) («farqlar farqi»). Natijalar «jazo uchun emas, yordam uchun» qo‘llanadi: D. Kempbell ko‘rsatganidek, ijtimoiy qarorlarda ko‘p tayanilgan ko‘rsatkich buzilish bosimiga uchraydi [21].

TAHLIL VA NATIJALAR

Shartli misol (gipotetik ma’lumotlar). A4–A6 va agregatsiyalash qoidasi shartli tumanning beshta mahallasi («A»–«D») misolida ko‘rsatiladi: o‘lchov ballari 1-jadvalda, natijalar 2-jadvalda; «Arifm. o‘rta» ustuni amaldagi vaznlar (1/6 va 1/9) bilan hisoblangan.

1-jadval. Shartli misol: mahallalar aholisi va o‘lchov ballari (0–100)

Mahalla	Aholi	AM	MI	QD	O‘I	TT	FF	OM	HT
A	3 200	72	75	80	74	82	68	77	79
B	2 100	58	61	70	55	66	47	63	60
V	4 500	44	48	63	46	58	52	49	57
G	1 800	81	78	76	72	79	30	36	55
D	2 700	36	42	58	39	44	40	46	37

Manba: muallif ishlanmasi (shartli misol).

2-jadval. Shartli misol: qatlam ballari, IMMI, daraja va muammoli nuqtalar

Mahalla	Ong	Qalb	Xulq	IMMI	Arifm. o‘rta	Tanqislikdagi o‘lchovlar (D<50)	Soni	Qatlam inqirozi (L<40)	Muammoli nuqta	Daraja / rang
A	73,5	78,6	74,5	75,5	75,6	yo‘q	0	yo‘q	yo‘q	yaxshi / yashil

B	59,5	63,3	56,2	59,6	59,9	FF	1	yo‘q	yo‘q	o‘rta / sariq
V	46,0	55,2	52,6	51,1	51,4	AM, MI, O‘I, OM	4	yo‘q	ha (≥3 o‘lchov)	o‘rta / sariq
G	79,5	75,6	39,0	61,7	65,2	FF, OM	2	Xulq (39,0)	ha (qatlam)	o‘rta / sariq
D	38,9	46,3	40,8	41,9	42,3	AM, MI, O‘I, TT, FF, OM, HT	7	Ong (38,9)	ha (ikkala mezon)	past / qizil

Manba: muallif ishlanmasi (shartli misol).

Misoldan to‘rtta saboq kelib chiqadi. Birinchidan, «G» mahallada arifmetik o‘rta 65,2 ball va «yaxshi / yashil» toifa berib, xulq inqirozini (FF 30, OM 36) yashiradi; geometrik agregatsiyalash 61,7 va «o‘rta / sariq» beradi, qatlam mezoni (xulq: 39,0) esa, 50 dan past o‘lchovlar ikkita bo‘lsa ham, mahallani muammoli nuqta deb belgilaydi. Inqirozni indeks emas, qatlam mezoni ochdi: qaror profil bo‘yicha qabul qilinishi kerak. Ikkinchidan, «V» indeksi o‘rta (51,1), lekin to‘rtta tanqislikni (AM 44, MI 48, O‘I 46, OM 49) yashiradi; bu profilga 3-jadvaldagi paketlar mos. Uchinchidan, «D»da yetti o‘lchov 50 dan past va ong qatlami 38,9, ya’ni ikkala mezon bajarilgan: kompleks paket va tuman rejasida ustuvorlik kerak.

To‘rtinchidan, «B» va «G» indekslari yaqin (59,6 va 61,7), lekin «B»da qatlamlar bir tekis o‘rta, yagona tanqislik FFda (47), «G»da esa xulq inqirozda: yagona reyting bir xil choraga undaydi, profil esa turli yechim talab qiladi. «B», «V», «G» bir xil sariq, ammo muammoli nuqta faqat «V» va «G» (turli sabablarga ko‘ra); rangli xarita profilni almashtira olmaydi.

Agregatsiyalash qoidasi. Tumanda mahallalarning o‘lchov ballari aholiga mutanosib jamlanib, indeks qayta hisoblandi (chiziqlilik tufayli, kesish bo‘lmasa, bu indikatorlarni agregatsiyalashga teng). Tuman ballari: AM 55,5, MI 58,6 (ong 57,0); QD 68,5, O‘I 55,5, TT 64,5 (qalb 62,6); FF 49,8, OM 55,1, HT 58,3 (xulq 54,3); IMMI 57,9 (o‘rta / sariq), mahalla indekslarining aholiga ko‘ra vaznlangan o‘rtachasi 57,4. Geometrik o‘rta botiq bo‘lgani uchun bu o‘rtacha qayta hisoblangan indeksdan katta bo‘la olmaydi, farq esa tuman ichidagi tafovutni ifodalaydi. «Indikatorlar agregatsiyalanadi, indekslar qayta hisoblanadi» qoidasi darajalarni muvofiqlashtiradi va tumanga o‘z profilini beradi: FF = 49,8 < 50, ya’ni fuqarolik faolligi ustuvor.

Tuman profilining ikkinchi qismini taqsimot ko‘rsatkichlari tashkil etadi. Muammoli nuqtalarda («V», «G», «D») tumanning 14 300 aholisidan 9 000 nafari yashaydi; OM bo‘yicha tuman balli 55,1 bo‘lsa-da, bu o‘lchov o‘sha uchala mahallada 50 dan past, FF tanqisligi esa 6 600 nafarni qamraydi. Demak, o‘rtacha ball keng tarqalgan tanqislikni ham yashirishi mumkin, shu bois tuman va viloyat profiliga H va Hj ham kiradi. Chora darajasi tarqalishga mos bo‘ladi: tanqislik ayrim mahallalarda uchrasa, mahalla paketi, tuman bo‘ylab tarqalgan bo‘lsa, tuman dasturi, ko‘p tumanlarni qamrasa, viloyat dasturi qo‘llanadi. Viloyat va respublika profili. Viloyat profiliga tumanlararo tafovut ham qo‘shiladi, chunki o‘rtachasi teng ikki viloyatning birida muhit bir tekis, boshqasida qutblangan bo‘lishi mumkin. Respublika profili shu tuzilmada viloyatlar kesimida tuziladi, shart-sharoit ma’lumotlari esa indeksga kiritilmay, kontekst sifatida beriladi.

Hududiy xususiyatlar. Ular indeks tuzilmasini o‘zgartirmay, ma’lumot yig‘ish va talqinga ta’sir qiladi. Shahar va qishloq. Tanlanma stratalarga ajratilib, muammoli nuqtalar asosan o‘xshash toifa ichida taqqoslanadi. Ko‘p millatli hududlar. So‘rovnoma o‘zbek, rus yoki qoraqalpoq tilida o‘tkaziladi (mintaqaviy tajribadagi kabi [18]), til versiyalari qiyosidan oldin o‘lchov invariantligi tekshiriladi, totuvlik natijalari faqat agregat shaklda e’lon qilinadi. Mehnat migratsiyasi yuqori tumanlar. Migratsiya shart-sharoit omili sifatida OM va FF talqinida hisobga olinadi, OM tanqisligi esa muhojir oilalariga ko‘makni taqozo etadi. Mavsumiylik. Dala ishlari har yili bir xil chorakda o‘tkaziladi.

«Og‘ir toifadagi» mahallalar. PQ-49 maqomi (Sh) va IMMI ko‘rsatgan holat (H) birgalikda talqin etiladi [7]: og‘ir sharoit va muammoli holatda iqtisodiy dastur ma’naviy-ma’rifiy paket bilan uyg‘unlashtiriladi, og‘ir sharoit va barqaror holatda «bardoshli» mahalla tajribasi o‘rganiladi, qulay sharoit va muammoli holatda ma’naviy-ma’rifiy paket ustuvor, ikkalasi yaxshi bo‘lsa, muntazam monitoring olib boriladi. IMMI sharoitga qarab tuzatilmaydi, lekin o‘xshash sharoitli birliklar o‘zaro taqqoslanadi.

Sohaviy xususiyatlar. Ta’lim muassasalari, mehnat jamoalari va yoshlar uchun «yadro va modul» tuzilmasi taklif qilinadi: asosiy indikatorlar qiyosiy yadro bo‘lib qoladi, modul IMMIga qo‘shilmaydi. Ta’lim muassasalari. Maktab iqlimi moduli qo‘llanadi, voyaga yetmaganlar ota-ona roziligi bilan anonim so‘raladi. Maktablarni IMM bo‘yicha rangli guruhlarga ajratgan Vazirlar Mahkamasining 558-son qarori (2022) 29.01.2026 dan kuchini yo‘qotgan [22]; bu tajribadan xulosa: toifalashdan oldin vosita ishonchliligi va validligi isbotlanishi, baho faqat muassasa hisobotiga tayanmasligi, toifa esa jazo emas, yordam asosi bo‘lishi kerak, aks holda Kempbell qonunining ta’siri kuchayadi [21]. Mehnat jamoalari. Yadrodan O‘I, TT va QD3 (halollik me’yorlari) olinib, modul axloqiy iqlimni o‘lchaydi, so‘rovni mustaqil tashkilot anonim

o‘tkazadi. Yoshlar. 32 indikator yoshlar kesimida hisoblanadi, mahalla tanlanmasida yoshlar kam bo‘lgani uchun baholar tumanda yoki kichik hududlar bahosi bilan olinadi.

Muammo profilidan choraga. Profildan choraga o‘tish 3-jadvalda standartlashtirilgan; chora indikator profiliga qarab tanlanadi, samara esa tadbirlar soni emas, indikatorlar o‘zgarishi (A8) bilan baholanadi.

3-jadval. Muammo profili → manzilli chora paketi

Tanqislikdagi o‘lchov(lar)	Manzilli chora paketi	Asosiy mas’ullar	Kuzatiladigan indikatorlar
AM, MI (ong qatlami)	Manipulyatsiyaga qarshi «emlash», mediasavodxonlik treninglari	RMMM bo‘linmalari, ta’lim muassasalari, yoshlar yetakchisi	AM1, AM2, MI1, MI2
QD, TT	Mediatsiya, nizolarni erta bartaraf etish, qadriyatlar bo‘yicha mahalla muloqoti	Mahalla raisi, xotin-qizlar faoli, RMMM, profilaktika inspektori	QD2, TT1, TT2, TT3
O‘I	Sayyor qabullar, mahalliy institutlar hisoboti, ijtimoiy tayanch tarmoqlari	Hokimlik, mahalla raisi, hokim yordamchisi, ijtimoiy xodim	O‘I2, O‘I3, O‘I4
FF	Tashabbusli budjet, ko‘ngillilik va hashar, ma’rifiy faollik	Mahalla raisi, yoshlar yetakchisi, hokim yordamchisi, hokimlik	FF1, FF2, FF3, FF4
OM	Oilaviy maslahat, avlodlararo muloqot, erta nikohning oldini olish	Xotin-qizlar faoli, ijtimoiy xodim, mahalla raisi	OM1, OM2, OM3, OM4
HT	Huquqiy targ‘ibot va profilaktika, voyaga yetmaganlar bilan ishlash	Profilaktika inspektori, yoshlar yetakchisi, ta’lim muassasalari	HT2, HT3, HT4, HT1 (uch yillik o‘rtacha)
Ko‘p o‘lchovli tanqislik yoki qatlam inqirozi	Kompleks paket, tuman rejasida ustuvorlik, iqtisodiy choralar bilan uyg‘unlik	Hokimlik, RMMM, mahalla yettiligi	IMMI, Long, Lqalb, Lxulq

Manba: muallif ishlanmasi.

Institut so‘rovnomasi ma’lumotlarida sinov. IMMI respondent, ma’muriy va ekspert ma’lumotlarini talab qilgani uchun pilotda hisoblanadi. Ko‘p darajali va ShFH qoidalari Institutning 2024–2025 yilgi so‘rovnomasining agregat natijalarida sinaldi (2025: 14 hudud, N = 378 557) [23]. Nomlar shartli («R viloyat», «R1»–«R11»); 4-jadvalda R viloyat tumanlari ko‘rsatkichlari ShFH bo‘yicha matritsaga yig‘ilgan.

4-jadval. Salbiy o‘zgarish signallari: R viloyat tumanlari, 2024 → 2025

Tuman	Sh: mahallada yashashdan norozilar	H (O‘I3): ish topishda «mahalla yettiligi» yordami («har doim ham emas»)	H (QD1, MI3): «vatanparvar emasman»	Sh: ta’limga to‘siq (korrupsiya)	Sh: ta’limga to‘siq (ta’lim sifati)	Signallar: H / Sh
R1	4,9 → 8,2		4,5 → 13,2	14,9 → 19,1		1 / 2
R2			5,1 → 7,9	24,7 → 32,6	5,8 → 9,1	1 / 2
R3	7,6 → 17,2		4,8 → 11,8		8,7 → 17,3	1 / 2
R4		18,8 → 37,9	2,2 → 4,9			2 / 0
R5			1,9 → 17,4		9,6 → 18,0	1 / 1
R6	2,6 → 12,3	38,9 → 52,4				1 / 1

R7			2,1 → 6,0		8,8 → 10,8	1 / 1
R8	5,0 → 8,3			14,9 → 42,4		0 / 2
R9		44,0 → 58,9				1 / 0
R10	1,0 → 13,2					0 / 1
R11	0,6 → 12,8					0 / 1
Viloyat bo‘yicha	3,7 → 8,4		6,7 → 4,9			

Manba: muallif hisobi [23]. Respondentlar ulushi, %; bo‘sh kataklar xulosada berilmagan ko‘rsatkichlarni bildiradi; H: holat, Sh: shart-sharoit; «har doim ham emas» shartli ishonchni ham anglatishi mumkin.

Matritsadan uchta xulosa chiqadi. Birinchidan, viloyat o‘rtachasi salbiy o‘zgarishni yashirishi mumkin: «vatanparvar emasman» deganlar ulushi viloyatda 6,7 dan 4,9 foizga tushgan, ammo oltita tumanda 1,9–5,1 dan 4,9–17,4 foizgacha oshgan (raqamlarda xato bo‘lmasa, boshqa tumanlarda u keskin kamaygan bo‘lishi lozim); shartli misoldagi kabi, buni Hj ochadi. Ikkinchidan, Institut xulosasida bir xil «kamchilik» deb berilgan signallar uch vaziyatga bo‘linadi: oltita tumanda holat va shart-sharoit signallari birga, ikkitasida faqat holat, uchtasida faqat shart-sharoit signallari qayd etilgan; ularga mos ravishda kompleks paket, ma’naviy-ma’rifiy paket va shart-sharoit choralari hamda holatni to‘liq o‘lchash to‘g‘ri keladi. Uchinchidan, bu ma’lumotda k = 3 mezoni qo‘llanmaydi: holat bandlari asosan QD va O‘Iga tegishli bo‘lib, hech bir tumanda holat signallari ikkitadan oshmaydi. Xulosada asosan yomonlashgan tumanlar berilgani, xatolik chegaralari ko‘rsatilmagani va hududiy tanlanmalar yig‘indisi umumiy hajmdan 2 009 nafarga farq qilgani uchun matritsa tashxis emas, takroriy o‘lchovda tekshiriladigan farazlar ro‘yxatidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Ko‘p darajali baholash PQ-4307 qaroridagi «holatini aniqlash va manzilli sog‘lomlashtirish» vazifasining operatsional o‘zagidir, chunki manzil faqat hududiy birlik darajasida mavjud; «mahalla, tuman, viloyat, respublika» tamoyili 2019 yildayoq belgilangan bo‘lsa-da, uni amalga oshirishning hisoblash qoidalari ishlab chiqilmagan edi.

2. A1–A8 algoritmi to‘rt darajada indikatorlarni aholi soniga mutanosib agregatsiyalashni, kichik hudud baholarini barqarorlashtirishni va muammoli nuqtalarni «ikki chegara» mezoni bilan aniqlashni birlashtirib, jazo mantiqidagi reyting o‘rniga manzilli sog‘lomlashtirishga xizmat qiladigan hududiy profillar va muammoli nuqtalar xaritasini beradi.

3. Shartli misolda arifmetik o‘rta qatlam inqirozini yashirdi (65,2, «yaxshi / yashil»), geometrik agregatsiyalash va qatlam mezoni uni aniqladi (61,7, muammoli nuqta): indeksning o‘zi yetarli emas, qaror birligi profil bo‘lishi lozim.

4. «Indikatorlar agregatsiyalanadi, indekslar qayta hisoblanadi» qoidasi darajalarni izchil qiladi (tuman indeksi 57,9, mahalla indekslarining vaznlangan o‘rtachasi 57,4); tuman profiliga H va Hj ham kerak, chunki o‘rtacha ball keng tarqalgan tanqislikni yashirishi mumkin.

5. Institut 2024–2025 yillarda o‘tkazgan so‘rovnomaning agregat ma’lumotlarida viloyat o‘rtachasi kamaygani holda oltita tumanda salbiy javoblar ko‘paygani va signallarning turli ShFH birikmalari profil va Hj zarurligini ko‘rsatdi; Institut xulosasidagi bandlar esa ko‘p o‘lchovli mezon uchun yetarli bo‘lmadi.

6. Hududiy va sohaviy xususiyatlar indeks tuzilmasini o‘zgartirmasdan stratifikatsiya, til versiyalari va o‘lchov invariantligi, shart-sharoit bilan birgalikdagi talqin hamda «yadro va modul» orqali hisobga olinadi.

Takliflar:

1. Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutiga: A1–A8 algoritmini uslubiy qo‘llanma shaklida rasmiylashtirib, 2 tumanda pilot sinovdan o‘tkazish (har birida 20 mahalla, mahallada 30 respondent, jami ≈ 1 200 nafar; 20–25 ekspert), z, k va daraja chegaralarini kalibrlash; 2022 yilgi ma’lumotlarda bandlarni ikkilamchi tahlilda sinash va «qizil va sariq» mahallalar orqali mezon validligini ma’lum guruhlar usulida tekshirish; so‘rovnomaga IMMI modulini qo‘shish va egasizlantirilgan mikroma’lumotlarni ochish.

2. RMMM va hokimliklarga: natijalarni reyting emas, hududiy profillar va muammoli nuqtalar xaritasi shaklida taqdim etish, ulardan yordamni manzilli yo‘naltirishda foydalanish, paketlar samarasini maqsadli va qiyosiy birliklardagi ΔIMMI bo‘yicha baholash.

3. «Mahalla yettiligi»ga: profilni yillik ish rejasiga asos qilish, mas’ullarni 3-jadval bo‘yicha belgilash, «og‘ir toifadagi» mahallalarda iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy choralarni muvofiqlashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagi «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-4307-son qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/4320700

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-5040-son qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/5344692

3. Kaxarova M.M. Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish va siyosiy barqarorligini ta’minlash texnologiyalari: siyosiy fanlar doktori (DSc) diss. – Toshkent, 2024. – 258 b.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 21 dekabrdagi «Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-209-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/6705763

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 16 fevraldagi ««Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish» yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va «O‘zbekiston — 2030» strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida»gi PF-22-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/8050787

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 24 iyundagi «Mahalla boshqaruvini samarali tashkil etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-116-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/8286512

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 5 fevraldagi «2026 yilda hududlarni yangicha yondashuvlar asosida rivojlantirish orqali aholi daromadini oshirish, barqaror ish o‘rinlarini yaratish hamda kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-49-son qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/8038302

8. Raudenbush S.W., Sampson R.J. Ecometrics: Toward a science of assessing ecological settings, with application to the systematic social observation of neighborhoods // Sociological Methodology. – 1999. – Vol. 29, No. 1. – P. 1–41. – DOI: 10.1111/0081-1750.00059

9. Sampson R.J., Raudenbush S.W., Earls F. Neighborhoods and violent crime: A multilevel study of collective efficacy // Science. – 1997. – Vol. 277, No. 5328. – P. 918–924. – DOI: 10.1126/science.277.5328.918

10. Raudenbush S.W., Bryk A.S. Hierarchical Linear Models: Applications and Data Analysis Methods. 2nd ed. – Thousand Oaks, CA: Sage, 2002.

11. Rao J.N.K., Molina I. Small Area Estimation. 2nd ed. – Hoboken, NJ: Wiley, 2015. – DOI: 10.1002/9781118735855

12. Fay R.E., Herriot R.A. Estimates of income for small places: An application of James–Stein procedures to census data // Journal of the American Statistical Association. – 1979. – Vol. 74, No. 366. – P. 269–277. – DOI: 10.1080/01621459.1979.10482505

13. Clayton D., Kaldor J. Empirical Bayes estimates of age-standardized relative risks for use in disease mapping // Biometrics. – 1987. – Vol. 43, No. 3. – P. 671–681. – DOI: 10.2307/2532003

14. Alkire S., Foster J. Counting and multidimensional poverty measurement // Journal of Public Economics. – 2011. – Vol. 95, No. 7–8. – P. 476–487. – DOI: 10.1016/j.jpubeco.2010.11.006

15. Alkire S., Foster J., Seth S., Santos M.E., Roche J.M., Ballon P. Multidimensional Poverty Measurement and Analysis. – Oxford: Oxford University Press, 2015. – DOI: 10.1093/acprof:oso/9780199689491.001.0001

16. Ura K., Alkire S., Zangmo T., Wangdi K. A Short Guide to Gross National Happiness Index. – Thimphu: The Centre for Bhutan Studies, 2012.

17. Dragolov G., Ignácz Z., Lorenz J., Delhey J., Boehnke K. Social Cohesion Radar: Measuring Common Ground: An International Comparison of Social Cohesion. Methods Report. – Gütersloh: Bertelsmann Stiftung, 2013.

18. Larsen M.M., Boehnke K. Measuring Social Cohesion in the Kyrgyz Republic: The Social Cohesion Index. – Bishkek: University of Central Asia, 2016. – (Institute of Public Policy and Administration Working Paper; No. 37). – URL: https://www.sipri.org/sites/default/files/ippa_wp37_eng_2.pdf

19. Regionы v Rossii: sotsiokulturnые portretы regionov v obщerossiyskom kontekste / pod red. N.I. Lapina, L.A. Belyayevoy. – M.: Academia, 2009. – 807 s.

20. OECD, JRC. Handbook on Constructing Composite Indicators: Methodology and User Guide. – Paris: OECD Publishing, 2008. – DOI: 10.1787/9789264043466-en

21. Campbell D.T. Assessing the impact of planned social change // Evaluation and Program Planning. – 1979. – Vol. 2, No. 1. – P. 67–90. – DOI: 10.1016/0149-7189(79)90048-X

22. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 3 oktyabrdagi «Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy hamda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 558-son qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/6221555

23. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti. Aholi o‘rtasida o‘tkazilgan ijtimoiy-ma’naviy muhitni baholash va sog‘lomlashtirishga doir sotsiologik so‘rovnoma natijalari yuzasidan umumiy xulosa. – Toshkent, 2025. – 28 b. (Institut ichki materiali).